



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

### **Umumiy o'rta ta'lismuassasalari o'quvchilari orasida suv va energiya resurslaridan samarali foydalanishni targ'ib qilish to'g'risida**

Umumiy o'rta ta'lismuassasalari o'quvchilari o'rtasida suv va energiya resurslaridan samarali foydalanishni targ'ib qilish hamda ularda ushbu tabiat in'om etgan boyliklarga nisbatan tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish qo'nikmasini shakllantirish maqsadida **buyuraman**:

1. Umumiy o'rta ta'lismuassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida suv va energiyani tejashga bag'ishlangan "Tabiat in'omlari" nomli ertaklar videoroliklari tanlovi hamda 8-11-sinf o'quvchilari o'rtasida "Tabiat uchun" nomli onlayn videroliklar tanlovi tashkil etilsin.

#### 2. Quyidagilar:

umumiy o'rta ta'lismuassasalari o'quvchilari o'rtasida suv va energiyani tejashga bag'ishlangan tanlovnio'tkazish bo'yicha respublika ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o'rta ta'lismuassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida suv va energiyani tejashga bag'ishlangan "Tabiat in'omlari" nomli onlayn ertaklar videoroliklari tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida nizom 2-ilovaga muvofiq;

umumiy o'rta ta'lismuassasalarining 8-11-sinf o'quvchilari o'rtasida suv va elektr energiyasini tejash bo'yicha "Tabiat uchun" nomli onlayn videroliklar tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lismuassasalari (keyingi o'rinnarda ta'lismuassasalari)ning boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida suv va energiyani tejashga bag'ishlangan "Tabiat in'omlari" nomli onlayn ertaklar videoroliklari tanlovi, 8-11-sinf o'quvchilari o'rtasida suv va elektr energiyasini tejash bo'yicha "Tabiat uchun" nomli onlayn videroliklar tanlovi asosida suv va elektr energiyasidan to'g'ri foydalanishni targ'ib etuvchi mavzuga oid ochiq darslar 2024-yil yanvar-fevral oylari davomida tashkil etilsin.

4. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov):

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida suv va energiyani tejashta bag‘ishlangan ijodiy ertaklar videoroliklari tanlovini mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan nizom asosida yuqori saviyada tashkil etsin;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida suv va energiyani tejashta bag‘ishlangan ijodiy ertaklar tanlovini tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rnlarda - hududiy boshqarmalar) boshliqlari o‘rinbosarlari va tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshliqlari ishtirokida ZOOM platformasi orqali tushuntirish ishlarni olib borish choralarini ko‘rsin.

5. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova) ta’lim muassasalarining 8-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida suv va elektr energiyasini tejashta bo‘yicha “Tabiat uchun” nomli onlayn videroliklar tanlovini mazkur buyruqning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida yuqori saviyada o‘tkazsin va barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

6. O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minalash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)ga:

2024-yil yanvar-fevral oyalarida o‘quvchilar o‘rtasida suv va elektr energiyasidan to‘g‘ri foydalanishni targ‘ib etishga oid ochiq darslarni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha barcha tashkiliy masalalarni hal etish va uni nazorat qilish;

Bir hafta muddatda o‘quvchilar o‘rtasida suv va elektr energiyasidan to‘g‘ri foydalanishni targ‘ib etishga oid ochiq darslar tashkil etiladigan ta’lim muassasalarini (pilot maktablar) ro‘yxatini shakllantirish hamda ochiq darslar mavzularini tasdiqlash vazifalari yuklatilsin.

7. Hududiy boshqarmalar boshliqlari:

ikki kun muddatda mazkur buyruqni barcha ta’lim muassasalariga yetkazsin; ochiq darslar tashkil etiladigan ta’lim muassasalarini tanlash va ular haqidagi ma’lumotlarni uch kun muddatda Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim etsin;

mazkur buyruq bilan o‘tkazilishi belgilangan tanlovlarda ta’lim muassasalarini o‘quvchilarining ishtirokini ta’minalashga qaratilgan targ‘ibot ishlarni amalga oshirsin.

8. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov), Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova),

O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)ga:

tanlovlardan g‘oliblarini taqdirlash maqsadida esdalik sovg‘alarni sotib olish uchun talab etiladigan mablag‘larni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil uchun markazlashgan tadbirlari xarajatlar smetasiga kiritish;

tanlovlardan g‘oliblarini va eng namunali ochiq dars o‘tkazgan ta’lim muassasalarini hamkor tashkilotlar bilan birgalikda rag‘batlantirish choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

**9. Axborot xizmati rahbari (D.Sobirova):**

tanlovni ommaviy axborot vositalari, vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritsin;

tanlovda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilarning maktabi va ochiq darsslarni namunali tashkil etgan ta’lim muassasalari faoliyatini ommalashtirish maqsadida maxsus ko‘rsatuvlar tayyorlash choralarini ko‘rsin.

**10. Devonxona (D.Isxakova)** mazkur buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo‘linmalar va hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta’minlasin.

**11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.**

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil 14-dekabr,  
562-son

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2023-yil 14-dekabrdagi  
562-son buyrug‘iga  
1-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida suv va energiyani tejashga  
bag‘ishlangan tanlovnni o‘tkazish bo‘yicha respublika ishchi guruhi  
TARKIBI**

- |    |               |   |                                                                                                                           |
|----|---------------|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | D.Kenjayev    | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri<br>o‘rinbosari, ishchi guruhi raisi                                                  |
| 2. | A.Kamalov     | - | Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni<br>muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i,<br>ishchi guruhi raisi o‘rinbosari |
| 3. | N.Mamaraimova | - | Vazir maslahatchisi, a’zo                                                                                                 |
| 4. | D.Norboyeva   | - | O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash<br>va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i, a’zo                                 |
| 5. | I.Xoldarova   | - | Maktabdan tashqari ta’limni tashkil<br>etish bo‘limi boshlig‘i, a’zo                                                      |
| 6. | D.Sobirova    | - | Axborot xizmati rahbari, a’zo                                                                                             |
| 7. | F.Zaripov     | - | Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni<br>muvofiqlashtirish boshqarmasi<br>bosh mutaxassis, a’zo                      |
| 8. | D.O‘rolov     | - | “Barkamol avlod” respublika bolalar<br>maktabi direktori, a’zo                                                            |
| 9. | B.Aminov      | - | Maktabdan tashqari ta’limni tashkil<br>etish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari,<br>kotib                                      |

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va mактаб  
ta’limi vazirining  
2023-yil 14-dekabrdagi  
562-son buyrug‘iga  
2-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida  
suv va energiyani tejashga bag‘ishlangan “Tabiat in’omlari” nomli onlayn  
ertaklar videoroliklari tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda - ta’lim muassasalari)ning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida suv va energiyani tejashga bag‘ishlangan “Tabiat in’omlari” nomli onlayn ertaklar videoroliklari tanlovi (keyingi o‘rinlarda - tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**II. Tanlovning maqsadi**

2. Tanlovning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida suv va energiya resurslaridan samarali foydalanishni targ‘ib qilish, ularda tabiat in’om etgan boyliklarga nisbatan tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish mas’uliyatini oshirish, atrof-muhitni asrashga qaratilgan g‘oyaviy immunitetni shakllantirish, ularga tejamkorlik fazilatlarini bolaligidan boshlab o‘rgatish, shuningdek, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini chuqur singdirish hamda ularning iste’dodi, ijodiy qobiliyatini aniqlash va rag‘batlantirishdan iborat.

**III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish**

3. Tanlov ta’lim muassasalarining 2-4-sinf o‘quvchilari o‘rtasida ertaklar misolida ijodiy videorolik shaklida o‘tkaziladi.

4. Tanlovda ishtirok etish uchun o‘quvchilar tomonidan suvgaga nisbatan mas’uliyatlari munosabatni shakllantirish, suvdan foydalanish madaniyati va elektr energiyasidan oqilona foydalanish bo‘yicha o‘zbek yoki rus tillarida videorolik (rasmlar ketma-ketligi/slaydshou, kollaj shaklida tayyorlangan materiallar qabul qilinmaydi) tayyorlash talab etiladi.

Videorolikda o‘quvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (F.I.SH., hudud maktab raqami) bo‘lishi lozim.

Videorolik hajmi 20 mb. dan oshmasligi lozim.

Videorolikni har qanday videoyozyuv vositalari (videokamera, raqamlı kamerası, mobil telefon va boshqalar) yordamida suratga olish mumkin.

5. Tanlov ikki bosqichda amalga oshiriladi:

**a) birinchi bosqich** – o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan videoroliklar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga elektron shaklda (Telegram messendjeri orqali **@Tabiatnavolari** manziliga) yuboriladi.

Videoroliklar joriy yilning 20-yanvardan 10-fevralga qadar qabul qilinadi.

Yuborilgan videoroliklar ekspertlar guruhi tomonidan baholanib har bir hududdan 3 tadan, jami 42 ta videorolik saralab olinadi.

**ikkinci bosqich** – ekspertlar guruhi tomonidan saralab olingan videoroliklar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifasiga ovoz yig‘ish uchun hududlar kesimida joylashtiriladi va har bir hududdan eng ko‘p “Like” to‘plagan videorolik g‘olib deb topiladi.

Ovoz berish besh kun davom etadi.

#### **IV. Videoroliklarni baholash mezonlari**

6. Videoroliklarni baholash uchun tegishli vazirlik va idoralar mutaxassis xodimlaridan iborat 5 kishilik ekspertlar guruhi shakllantiriladi.

7. Taqdim etilgan videoroliklar quyidagi mezonlар asosida 100 ballik tizimda baholanadi:

videorolik ssenariysida ijtimoiy hayotimizda sodir bo‘layotgan hodisalar, dolzarb muammo va masalalar, ayniqsa, yoshlar hayotini aks ettiruvchi mavzuga boy, ertak qahramonlaridan foydalanishda yondashuvga qaratilganligiga – 40 ballgacha;

videorolikda badiiy-g‘oyaviy talqin va yechim, unda muallif tomonidan suv va energiyani tejashni bolalarga tushunarli sodda va ravon tilda bayon etilganligi hamda dolzarbliliga e’tibor qaratilganligi – 10 ballgacha;

videorolikni sifatlari tasvirga olinganligi – 10 ballgacha;

ijodiy videorolikning tayyorlanishida ijodkorlik va kreativlik namoyish etilganligi – 20 ballgacha;

suv va energiya resurslaridan samarali foydalanishni targ‘ib qilish hamda tabiat in’om etgan boyliklarga nisbatan tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib qiluvchi videorolik va materiallar o‘quvchilar ishtirokida #tabiatin’omlari xeshtegi ostida ommaviy fleshmoblarning aks ettirilganligi – 20 ballgacha.

8. Quyidagi holatlar mavjud bo‘lgan videoroliklar ekspertlar guruhi tomonidan baholanmaydi:

haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlar (noto‘g‘ri ma’lumotlar);

so‘kish, odobsiz va haqoratomuz tasvirlar va iboralar;

diniy oqimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan diniy ramzlar, boshqa davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari;

siyosiy arboblar va yetakchilar, partiyalar, siyosiy shiorlar, davlatga va konstitutsiyaga zid ma’noga ega bo‘lgan bayonotlar nomlarini tilga olish.

## **V. Tanlov g'oliblarini taqdirlash**

9. Har bir hududdan eng ko‘p ovoz to‘plagan videoroliklar (jami 14 ta videorolik) “Eng yaxshi videorolik” deb topiladi va ularni tayyorlagan o‘quvchilar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining diplom hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

10. Tanlov doirasida saralash ochiq ovoz berish yo‘li bilan amalga oshirilishi sababli apellyatsiya komissiyasi tashkil etilmaydi, ishtirokchilar tomonidan bildirilgan yozma ariza va e’tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.

11. Tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan muddatdan keyin yuborilgan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi.

12. Mazkur nizomga zaruratdan kelib chiqqan holda respublika ishchi guruhi a’zolari tomonidan o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va mактаб  
ta’limi vazirining  
2023-yil 14-dekabrdagi  
562-son buyrug‘iga  
3-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 8-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida suv va elektr energiyasini tejash bo‘yicha “Tabiat uchun” nomli onlayn videoroliklar tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida**  
**NIZOM**

**1. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda - ta’lim muassasalari)ning 8-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida suv va elektr energiyasini tejash bo‘yicha “Tabiat uchun” nomli onlayn videoroliklar tanlovi (keyingi o‘rinlarda - tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**2. Tanlovning maqsadi**

2. Tanlovining maqsadi o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini va suv va elektr energiyasidan foydalanish madaniyatini oshirish, innovatsion faoliyatga jalb etish orqali ijodiy qobiliyatlarini va salohiyatini yuzaga chiqarish, suv resurslari va elektr energiyasidan oqilona foydalanishni targ‘ib qilishga jalb etish, ularga ijodiy qibiliyatlarini namoyish qilishlari uchun sharoit yaratish, ularning innovatsion yondashuvni rag‘batlantirish, o‘quvchilari ekologik madaniyatni va iste’mol qilinadigan tabiiy resurslarga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish va rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasining ekologik muammolarini hal etishda o‘quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

**3. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi**

3. Tanlov ta’lim muassasalarining 8-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida tashkil etiladi.

4. Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan suvgaga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, suvdan foydalanish madaniyati va elektr energiyasidan oqilona foydalanish bo‘yicha o‘zbek yoki rus tillarida videorolik tayyorlanadi.

5. Videorolikka qo‘yilgan talablar:  
davomiyligi 1-2 daqiqai;  
formati: MPEG4, AVI, mKV, wmv.  
minimal o‘lchamlari: 720x480.

700 MBdan oshmasligi;

tanlov nomi “Talabalar uchun suv va elektr energiyasini tejaydigan tezlatkich” va videoning muallifi (mualliflari) haqidagi ma’lumotlar aks ettirilgan so’nggi kadrda taglavhali ekran bo’lishi va ekran pardasi va kreditlarning davomiyligi videoning umumiyligi davomiyligiga kiritilgan 10 soniyadan oshmasligi.

Videorolikni har qanday videoyozuv vositalari (videokamera, raqamli kamera, mobil telefon va boshqalar) yordamida suratga olish mumkin.

Ishtirokchilar videorolik janrini (videoklip, multfilm, intervyu, reportaj, hikoya va boshqalar) mustaqil ravishda belgilaydilar. Ijodiy g’oyalar va ijodiy yondashuv rag’batlantiriladi.

Videorolikda mактабда, uyda, shaharda suv va elektr energiyasini qanday qilib muvaffaqiyatlil tejash mumkin bo’lgan layfxaklar ko’rsatilishi mumkin.

7. Videoroliklar 2024-yilning 20-yanvardan 10-fevralga qadar [https://t.me/targibotchi\\_ijodkor](https://t.me/targibotchi_ijodkor) telegram kanalida ko’rsatilgan akauntda qabul qilinadi.

8. Quyidagi holatlar mavjud bo’lgan videoroliklar ekspertlar guruhi tomonidan baholanmaydi:

haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlar (noto’g’ri ma’lumotlar);

so’kish, odobsiz va haqoratomuz tasvirlar va iboralar;

diniy oqimlar to’g’risidagi ma’lumotlar, shu jumladan diniy ramzlar, boshqa davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari; siyosiy arboblar va yetakchilar, partiyalar, siyosiy shiorlar, davlatga va konstitutsiyaga zid ma’noga ega bo’lgan bayonotlar nomlarini tilga olish.

9. Tanloving yo’nalishlari quyidagilar:

1-toifa: Kundalik hayotda energiya tejash.

2-toifa: “Energiya qayerdan keladi va nima uchun uni tejash kerak?”

3-toifa: “Mening uyimdagи suv qayerdan keladi va qayerga ketadi?”

4-toifa: “Nima uchun va qanday qilib suvni tejashingiz mumkin.”

9.1. Ishtirokchilar har bir nominatsiya bo’yicha faqat bitta ish (jami 4 ta ish) taqdim etishlari mumkin. Birdan to’rtgacha bo’lgan ishlar soni ishtirokchining o’zi tomonidan belgilanadi. Ishtirok etish va videotanlovga asarlarni topshirish uchun jamoaviy arizalar ham mumkin (har bir nominatsiyada bittadan)

#### **4. Tanloving baholash tartibi va mezonlari**

10. Videoroliklarni baholash uchun tegishli vazirlik va idoralar mutaxassis xodimlaridan iborat 5 kishilik ekspertlar guruhi shakllantiriladi.

11. Ekspertlar guruhi tomonidan ishtirokchilarning videoroliklari quyidagi mezonlarga asosan 100 ballik tizimda baholanadi:

mazmun va dizayn talablariga muvofiqligi;

kinematografiya sifati, tasvir, ovoz, musiqa tanlash;

axborot mazmuni (mavzuning to’liqligi, mazmunning tanlov maqsad va vazifalariga muvofiqligi, ijodiy hayotni tasdiqlovchi xarakteri);

tomoshabinga hissiy ta'sir;  
suvni tejash usulining o'ziga xosligi, nostandardligi, yangiligi;  
videoni tahrirlash sifati (musiqa va tasvirlarni sinxronlashtirish, video  
o'tishlari, video ketma-ketligining o'ziga xosligi).

12. Baholash mezonlariga ko'ra munosib deb topilgan nomzodlar O'zbekiston  
Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining diplomlari va  
qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

## **5. Yakuniy qoidalar**

13. Boshqa ko'rik-tanlovga taqdim etilgan videoroliklar ko'rib chiqilmaydi.
14. Tanlovga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
15. Tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan muddatdan keyin yuborilgan  
ijodiy ishlar qabul qilinmaydi.